TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

# ONTOLOGIYA. BORLIQ FALSAFASI.

**Tursunboyev Doniyor Mansurjon o'gli. TDSI talabasi.**

**Ilmiy raxbar:** *Umirzakova Nargiza Akmalovna*

*Toshkent davlat stomatologiya instituti,*

*Toshkent, O'zbekiston*

**Annotatsiya:Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — ontologiya deb ataladi (bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qollagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.**

**Kalit sõzlar:Borliq falsafasi, harakat, ong, astranomiya, vaqt, makon,materiya tuzilishi,tabiatshunoslik.**

Borliq falsafa predmeti sifatida. Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o`rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Bugungi kunda olimlar notirik, tirik dunyo va ijtimoiy dunyo nima, degan savollarga javob topishda jiddiy yutuqlarga erishganlar. Ular dunyo haqida o`tgan asrlarda yashagan o`z hamkasblariga qaraganda to`laroq va teranroq tasavvurga egadirlar. Ammo, dunyoning mohiyati haqidagi ko`pgina muhim savollarga hozir ham aniq va uzil-kesil javoblar mavjud emas. Masalan, nafaqat makon yoki vaqt tushunchalariga, balki nisbatan soddaroq hodisa bo`lmish gravitatsiya tushunchasiga ham dunyo-da biron-bir fizik bugungi kunda ham aniq (ayni paytda tajribada tasdiqlanadigan) ta'rif bera olmaydi. Shu sababli insonning dunyo haqidagi qarashlarida muhim rol o`ynaydigan, biroq ilmiy yechi-mini topmagan muammolarni falsafiy anglab yetishga kuchli ehtiyoj doimo mavjud bo`lgan va hozir ham saqlanib qolmoqda. Bu muammolarning aksariyati haqli ravishda «boqiy» muammolar deb ataladi, chunki ular predmeti mos kelsa ham bilish metodlari va vositalari har xil bo`lgan fan va falsafa e'tiborini o`ziga jalb qilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, fizika va boshqa muayyan fanlarga joiz bo`lmagan narsalar falsafa uchun joizdir. Aniq dalillarga tayanadigan va ularga muvofiq qarashlar birligiga erishishga harakat qiladigan tabiatshunoslikdan farqli o`laroq, falsafa yakdillikka intilmaydi va ayni bir muammolar bo`yicha ba'zan qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi javoblar beradi. Shu tariqa u dunyoqarashni kengaytiradi, eski muammolarning odatdagi talqinini o`zgartiradi, aniq fanlar-ning metodlari bilan amalga tatbiq etiladigan yangi yechimlar ustida ijodiy izlanishga da'vat etadi.

Shu tariqa falsafa evristik va metodologik rolni bajarar ekan, ayni zamonda o`zi ham tabiatshunoslik oluvchi ishonchli natijalarga muhtoj bo`ladi va ulardan yangi nazariyalar

tuzish uchun asos sifatida foydalanadi. Shu sababli biz borliqning asosiy shakllari va fundamental asoslarini falsafa nuqtai nazaridan o`rganar ekanmiz, albatta yo ishonchliligi shubha uyg`otmaydigan, yo borliqni yaxshiroq tushuntirgani uchun qabul qilinadigan tabiiy-ilmiy material va daliliy ma'lumotlarga tayanamiz.

Ontologiya — olam, inson va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati to'g'risidagi falsafiy ta'limotdir. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi, insonning olamga bolgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir.

Ontologiyaning predmetini borliq tashkil etadi. Uning mazmuni borliq va yo'qlik, me'yor va sifat, miqdor va olchov, makon va zamon, harakat va o'zgarish kabi tushunchalar orqali yoritiladi.0 'z o'rni va ahamiyatiga ko'ra asl falsafani o'rganish aynan ontologiyadan boshlanadi. Shuning uchun ham olmishda yashagan faylasuf va mutafakkirlar ijodida ontologiya qamrab oladigan borliq va mavjudlik, koinot va olam, botiniylik va zohiriylik, borlik va yo'qlik, materiya va harakat, makon va zamon, cheklilik va cheksizlik, inson va jamiyat borlig'i bilan bogliq masalalarga alohida ahamiyat berilgan. Falsafa tarixida ushbu sohaga doir turli oqimlar va yo'nalishlar shakllangan.
«Ontologiya» atamasi borliq haqidagi ta'limot ma'nosida ilk bor R.Goklenius (1636-yil) va I.Klauberg (1646-yil) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Lug'aviy ma'noda u yunoncha «ontos» — borliq va «logos» — ta'limot degan mazmunni anglatadi. G'arb faylasufi X.Volf tadqiqotlari bu atamaning keng tarqalishiga asos yaratdi va u falsafaning asosiy mazmunini tashkil etuvchi muhim bolimini ifodalay boshladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1. FALSAFA ASOSLARI.**

**0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti - 2018. 89-109 b.**

**2. Falsafa. Ma'ruzalar matni, T., 2000.**

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Феномен медицинских и гуманитарных наук и междунарародный опыт интеграции гуманитарных наук в медицинском образовании. /Философские проблемы биологии и медицины. Москва. Выпуск №13. Выпуск 13.- М.: ЛЕНАНД, 2019. – 304 с.

Умирзакова Н.А. Таълимни инсонпарварлаштириш контекстида биоэтиканинг онтологик ва гносеологик жиҳатларининг методологик таҳлили: ф.ф.н...дисс. - Тошкент: ЎзМУ. 2022. - Б.147.

Умирзакова Н.А. Значение изучения биоэтики в формировании профессиональной компетентности у студентов медицинских ВУЗов. Научные исследования XXI века. №5 (7) 2020. Нефтекамск. Россия. 2020. стр. 140- 144.

TA'LIM FIDOYILARI
GUVOHNOMA № 1170
ISSN:2181-2160
SJIFACTOR: 4.27 RESEARCHBIB(I.F): 6.2 U.I.F: 6.8
WWW.REANDPUB.UZ

Умирзакова Н.А. Bioethics as a value system for professional competence of doctors. (The priority research areas in the XXI century). Материалы международной научно-практической конференции 30 сентября 2020 года. (г. Прага. Чехия). Б.148-152.

Умирзакова Н.А. Репродуктив саломатлик ва оила қадриятларининг биоэтикавий жиҳатлари. Монография. –Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.112.

Умирзакова Н.А. Ўзбекистон Республикасида суррогат оналик масаласи: муаммо ва ечимлар // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2019. -№2– Б. 58-61.

Умирзакова Н.А. Медикализация жараёнларининг жамият ҳаётига таъсири – биоэтика муаммоси сифатида // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2020. -№ 1/4. – Б.136-138.

Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо бўлиши, фан сифатида шаклланиши ва ўрганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. - №1(8). - Б. 56-69.

Умирзакова Н.А. Жамият ҳаёти ва медикализация // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2021. -№1. - Б. 118-121.

Умирзакова Н.А. Bioethic culture in Uzbekistan: national and religious aspects of // International engineering journal for research & development. – India, 2021. Vol.6. Issue 2. SJIF: 7.169. E-ISSN. No:2349-0721. – P.1-4. (№23; SJIF, 7.169).

Umirzakova N.A. The Roles of Bioethics in the Formation of Professional Competence of Students of Medical Universities in Uzbekistan // Eubios journal of Asian and international ejaib. Vol. 31(5). July. 2021. – P. 258-260. (№3; SCOPUS);

Умирзакова Н.А. Востребованность биоэтики для гуманизации медицинского образования в Узбекистане // IX Міжнародного симпозіуму з біоетики Здоров'я, медицина та філософія: стратегії виживання. 15-16 квітня. Киев, 2021. - Б. 88-90.

Умирзакова Н.А. Роль биоэтики в формировании ценностной системы врачей // Ўзбекистон Республикаси тиббиёт олий ўқув юртларида таълим дастурларини амалга ошириш тажрибаси: Ўқув-услубий конгресс тўплами. –Тошкент, 2021. –Б.339–342.

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Биоэтика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.135.

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Биоэтик атамаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Lesson-press, 2021. - Б.119.

Мухамедова З.М., Умирзакова Н.А. Исторические и современные аспекты мусульманской философско-религиозной и этической традиции в медицине // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2019. - №4 (7). - С. 28-51.

Umirzakova N.A, Mukhamedova Z.M. Historical and modern aspects of Islamic philosophical, religious and ethical traditions in medicine in Uzbekistan // Eubios journal of Asian international bioethics. Vol. 30 (1)–New Zealand. 2020. -P.12-20. (№3; SCOPUS).

Umirzakova N.A., Mukhamedova Z.M., Makhmudova A.N. The uzbek model of bioethics: history and modernity // Malim: jurnal Pengajian umum asia Tenggara (sea journal of general studies). – Malayziya
Yuldasheva. L.S. Jon tananing hayotiy kuchi. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES PHILOSOPHY AND CULTURE. 2022. 14. 12.

Yuldasheva. L.S ABU RAYHON BERUNIYNIG ONTOLOGIK QARASHLARI.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. 03.02.

Yuldasheva L.S Abdukholik Gijduvani's Teachings On Human Perfection: A Philosophical Analysis.

JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS. 2022. 12.31.